

Yuqori energiyalar fizikasi sohasidagi hamkorlik

Qozog'iston Respublikasi Energetika vazirligi Yadro fizikasi instituti hamda Satbayev universiteti Fizika-texnika instituti (Olmaota, Qozog'iston) katta ilmiy xodimi, PhD Anastasiya Igorevna Fedosimova O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutining Yuqori energiyalar fizikasi laboratoriyasida Katta adron kollayderining (CERN, Shveytsariya) proton-proton to'qnashuvlari va yuqori energiyali og'ir ionlarning to'qnashuvlari bo'yicha ochiq ma'lumotlarning tahlili bo'yicha ilmiy stajirovkani muvaffaqiyatli yakunladi.



A.I. Fedosimovaning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutidagi ilmiy stajirovkasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti hamda Qozog'iston Respublikasi Energetika vazirligi Yadro fizikasi instituti, shuningdek, Satbayev universitetining Fizika-texnika instituti (Olmaota, Qozog'iston) o'rtaidagi yuqori energiyalar fizikasi sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi shartnoma doirasida o'tkazildi. Respublikasi. Amaliyat davomida A.I. Fedosimova O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutining Yuqori energiyalar fizikasi laboratoriyasida ilk bor ishlab chiqilgan Katta adron kollayderining eksperimental ma'lumotlarini nazariy modelli tahlil qilish usulini o'zlashtiribgina qolmay, balki yuqori energiyali og'ir qo'rg'oshin ionlarining simmetrik to'qnashuvlari bo'yicha eksperimental ma'lumotlarini qo'shma tahlil qilishda ishtiroy etdi.

A.I. Fedosimovaga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutida ilmiy stajirovkani muvaffaqiyatli o'tganligi to'g'risida tegishli sertifikat topshirildi. Yuqori energiyalar fizikasi sohasida hamkorlik to'g'risidagi kelishuv doirasida, so'nggi olti oyda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti Yuqori energiyalar fizikasi laboratoriyasi olimlari o'zlarining qozog'istonlik hamkasblari bilan birgalikda Web of Science va Scopus ma'lumotlar bazalarida indekslangan nufuzli xalqaro jurnallarda ikkita ilmiy maqola chop etishdi. Qozog'istonlik olma A.I. Fedosimovaning

muvaffaqiyatli yakunlangan ilmiy stajirovkasi yaqin keljakda nufuzli Web of Science va Scopus bazalarida indekslangan xalqaro jurnallarda yuqori energiyalar fizikasi sohasidagi O'zbekiston-Qozog'iston qo'shma ilmiy maqolalar sonini ko'paytirish imkonini beradi.